



QASIDA AND MASNAWI: HISTORY AND ARTISTIC FEATURES OF THE GENRES OF ARABIC POETRY AND PROSE

Bakhromkhuja Makhamadkhodjayev

Lecturer

International Islamic Academy of Uzbekistan
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Arabic literature, ancient poetry, qasida, masnawi, poetry genres, artistic means, tashbeh, istiora, irony, arab culture, social life, narrative element.

Received: 20.12.24

Accepted: 22.12.24

Published: 24.12.24

Abstract: This article analyzes the origin, structure, artistic characteristics and socio-spiritual significance of the qasida and masnawi, one of the most ancient and prominent genres of Arabic literature. qasida is considered as a classic example of Arabic poetry, with its three main parts — the nasib, the rahil and the hymn parts-being covered in detail. The content, poetic characteristics of these divisions and their influence on the development of Arabic poetry are revealed. Masnawi, on the other hand, is analyzed as a narrative-didactic genre, showing its rhyming system, its role in chronicling epic events, and its possibilities for artistic expression. The role of the masnawi genre in the creation of mysticism, didacticism and enlightenment works is also highlighted.

QASIDA VA MASNAVIY: ARAB SHE'RIYATI VA NASRIYATI JANRLARINING TARIXI VA BADIY XUSUSIYATLARI

Baxromxuja Maxamadkhodjayev

o'qituvchi

*O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi
O'zbekiston, Toshkent*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Arab adabiyoti, qadimiy she'riyat, qasida, masnaviy, she'riyat janrlari, badiiy vositalar, tashbeh, istiora, kinoya, arab madaniyati, ijtimoiy hayot, hikoyaviy element.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab adabiyotining eng qadimiy va ko'zga ko'ringan janrlaridan bo'lgan qasida va masnaviyning kelib chiqishi, tuzilishi, badiiy xususiyatlari va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Qasida arab she'riyatining

mumtoz namunasi sifatida ko'rib chiqilib, uning uch asosiy qismi — nasib, rahil va madhiya qismlari batafsil yoritiladi. Ushbu bo'linmalarining mazmuni, poetik xususiyatlari va ularning arab she'riyati rivojiga ta'siri ochib beriladi. Masnaviy esa hikoyaviy-didaktik janr sifatida tahlil qilinib, uning qofiyalanish tizimi, epik voqealarni bayon qilishdagi o'rni va badiiy ifoda imkoniyatlari ko'rsatiladi. Shuningdek, masnaviy janrining tasavvufiy, didaktik va ma'rifiy asarlarni yaratishdagi o'rni ham alohida ta'kidlanadi.

КАСИДА И МАСНАВИ: ИСТОРИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЖАНРОВ АРАБСКОЙ ПОЭЗИИ И ПРОЗЫ

Бахромхуджа Махамадходжаев

Преподаватель

Международной исламской академии Узбекистана

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская литература, древняя поэзия, касида, маснави, жанры поэзии, художественные средства, аллюзия, история, ирония, арабская культура, общественная жизнь, повествовательный элемент.

Аннотация: В этой статье анализируются происхождение, структура, художественные особенности и социально-духовное значение касиды и маснави, старейших и наиболее заметных жанров арабской литературы. Касида рассматривается как классический образец арабской поэзии, в которой подробно описаны три основные части: "судьба", "Рахиль" и "гимн". Раскрывается содержание, поэтические особенности этих разделов и их влияние на развитие арабской поэзии. Маснави, с другой стороны, анализируется как повествовательно-дидактический жанр, показывая его систему рифмовки, его роль в повествовании эпических событий и его возможности художественного выражения. Также особо подчеркивается роль жанра маснави в создании мистических, дидактических и просветительских произведений.

KIRISH

Arab adabiyoti dunyo madaniy merosining eng qadimiy va boy manbalaridan biri bo'lib, uning asosi qadimiy she'riyat va nasrga borib taqaladi. Ushbu adabiyotda qasida va masnaviy janrlari alohida o'rin egallaydi. Qasida — arab she'riyatining mumtoz namunasi bo'lib, uning qat'iy tuzilishi, badiiy vositalardan unumli foydalanish va an'anaviy mavzularni qamrab olishi

bilan ajralib turadi. Bu janrning asosiy maqsadi shoirning tuyg‘ulari, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari va estetik tasavvurlarini ifodalashdir. O‘z navbatida, masnaviy esa asosan hikoyaviy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, epik voqealarni[1] bayon qilish, axloqiy nasihatlar va tasavvufiy mushohadalarni ifodalash uchun qulay shakl hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Qasida va masnaviy janrlari nafaqat adabiy janr sifatida, balki arab madaniyati va ijtimoiy hayotining muhim ko‘rinishi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Qasidalar orqali shoirlar o‘z homiylarini maqtash, dushmanlarini tanqid qilish yoki ijtimoiy mavzularni yoritishgan. Bu janr orqali arab shoirlari shaxsiy kechinmalar, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar va siyosiy voqealarga munosabat bildirganlar. Bunda shoirlar ko‘pincha tashbeh, istiora va kinoya kabi badiiy vositalardan foydalanib, ta’sirchan poetik asarlar yaratganlar.

Masnaviy esa o‘zining epik xususiyati bilan arab, fors va turkiy adabiyotlarda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu janrda yozilgan asarlar katta hajmdagi voqealarni uzviy bog‘langan hikoyalar tizimida bayon etib, o‘quvchi va tinglovchiga axloqiy saboq berishni maqsad qilgan. Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy singari mashhur mutafakkir[2] va shoirlar masnaviy janrida ko‘plab durdona asarlar yaratganlar. Bu asarlar o‘z davrida nafaqat badiiy mahoratning namunasi, balki diniy-tasavvufiy g‘oyalarning keng tarqalishiga xizmat qilgan.

Qasida – arab she’riyatining eng qadimiy va mashhur janrlaridan biri bo‘lib, unda an’anaviy mavzular, qat’iy tuzilish va badiiy vositalarning mohirona qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qasida asosan muayyan maqtov, tanqid yoki hayotiy hodisalarini tasvirlash maqsadida yozilgan bo‘lib, uning uzunligi 15 dan 100 misraga yetishi mumkin.

Qasidalar dastlab Jahiliya davri shoirlari tomonidan yaratilgan bo‘lib, keyinchalik bu janr islomiy davrda ham keng rivojlangan. Misol tariqasida Imroul Qays, Al-Mutanabbiy, Abu Tamom kabi shoirlarning qasidalarini keltirish mumkin.

Qasida an’anaviy ravishda uch asosiy qismidan tashkil topadi:

1. Nasib (Ishqiy kirish qismi) Nasib qismida shoir ko‘pincha yo‘qotilgan sevgi, sevganining go‘zalligi yoki o‘tmishdagi xotiralarni eslaydi. Bu qism she’riy tuyg‘ular va hissiyotlarning eng yorqin tarzda ifoda etilishiga bag‘ishlangan. Tashbeh va istiora kabi badiiy vositalar keng qo‘llaniladi. **Misol:** Imroul Qaysning mashhur bayti:

قف نبک من ذکری حبیب و منزلي، بسقط اللوی بین الدخول فحومل.

(*Qifa nabki min zikra habibin va manzili, bisiqt al-luva bayna ad-dukhuli va Humali.*)
“*To ‘xtang, yo ‘qolgan sevgilim va eski maskanimni eslab yig‘laylik, Dukhol va Humal oralig‘idagi Siqti al-Luva yerlari haqida... ”*[3].

Imroul Qaysning bu mashhur bayti nasib qismida o‘tgan sevgini va yoshlik xotiralarini jonli tasvirlar bilan ifodalaydi. Bu tashbeh va hissiy obrazlarga boy.

2. Rahil (Safar tasviri) Shoир o‘z safarlarini, tabiat manzaralarini yoki jangovor epizodlarni tasvirlaydi. Ushbu qismda shoирning hayotiy tajribasi va qiyinchiliklarga qarshi kurashi aks etadi. Tabloistik tasvirlar, tabiat obrazlari va epik ruh ishlataladi.

وَمِنَ النُّورِ يَحْكُمُ قَرْوَنَهُ، بِفَضْلِهِ كَلَّهُ وَجْهُ الْأَرْضِ.

(Va marra as-savru yahikku qirunahu, bifadain ka’annahu vajhu al-ardi.) “Haqiqatda shoxlarini yerga surayotgan buqa, yuzini yerdan ajratish qiyin bo‘lgan manzara kabi ko‘rindi”[4].

Bu baytda rahil qismida safar davomida sahro va tabiat manzaralari jonli ravishda tasvirlangan. Tashbeh (“buqa yuzini yerga o‘xshatish”) jonli obraz yaratadi.

3. Madhiya (Maqtov yoki tanqid qismi) Shoир qasidaning asosiy maqsadini ochib beradi. Bu qismda shoир biror shaxsni maqtaydi (masalan, sulton, jangchi) yoki tanqid qiladi. Madhiya qismi ko‘pincha mubolag‘a (istig‘raq), maqtov (madh), va so‘z o‘yinlariga boy bo‘ladi.

إِذَا غَامَرْتَ فِي شَرْفٍ مَرْوِمٍ، فَلَا تَقْنَعْ بِمَا دُونَ النَّجُومِ.

(Iza g‘amarta fi sharafin marumin, fala taqna’ bima duna an-nujumi.) “Agar sharaflı maqsad yo‘lida xavfga yuz tutsang, yulduzlardan pastiga rozi bo‘lma”[5]. Al-Mutanabbiyning ushbu bayti madhiya qismidan bo‘lib, mardlik va yuksak maqsadlarga erishish zarurligini mubolag‘a orqali ta’sirli ifodalaydi.

Qasida arab she’riyatining eng ko‘zga ko‘ringan janrlaridan biri bo‘lib, uning tuzilishi va badiiy elementlari o‘ziga xos estetik tizimni tashkil etadi. Shoirlar qasidalar orqali o‘z hissiyotlarini, ijtimoiy va madaniy qarashlarini ifodalaganlar. Qasidalar arab adabiyotining mumtoz namunasi sifatida nafaqat o‘tmishda, balki zamonaviy she’riyatga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Qasida faqat badiiy asar sifatida emas, balki arab jamiyatida ijtimoiy-siyosiy rol o‘ynagan. Ular orqali shoirlar o‘z homiylarini maqtash, dushmanlarini tanqid qilish yoki o‘z milliy g‘ururini ifodalash uchun foydalanishgan. Shu tariqa, qasida arab madaniyati va milliy o‘zligining muhim ko‘rinishi sifatida xizmat qilgan.

Masnnaviy janrining ta’rifi va adabiy uslubi

Masnnaviy – arab va fors adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, u ko‘pincha epik, didaktik va hikoyaviy mazmundagi asarlar uchun ishlataladi. Masnaviyning o‘ziga xos jihatni har bir baytning ikki misrasi o‘zaro qofiyalanishi va asarning mavzusi ko‘p qismli, keng ko‘lamli bo‘lishidadir. Ushbu janr lirik-falsafiy, didaktik va ma’rifiy mazmunlarni bayon qilish uchun juda qulay shakl bo‘lib, asosan sevgi, din, axloq, siyosat va falsafa kabi mavzularni qamrab oladi.

Masnnaviyda hikoyaviy va didaktik elementlar janrning asosiy xususiyatlarini belgilaydi:

- Hikoyaviy elementlar.** Masnaviy ko‘pincha epik shaklda yozilib, voqealar zanjirini tasvirlaydi. Har bir bayt asarning voqeaviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoyaviy elementlar orqali masnaviy o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi va matnni jonli, tushunarli qiladi.

Masnaviyda dramatik vaziyatlar, qahramonlarning xatti-harakatlari va voqealar rivoji lirik ruhda ifodalanadi. Masalan, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" asari dunyoviy va ma'naviy voqealarni hikoyaviy shaklda birlashtiradi.

يَا قَلْبِي لَا تَحْزُنْ عَلَى مَا فَلَتْ، فَإِنْ فِي الدَّهْرِ أَفْرَاحًا وَمَحْطَاتٍ.

(*Ya qalbi la tahzan 'ala ma fata, fa inna fi-d-dahri afrahan va mahattat.*) "Ey yuragim, o'tmishda o'tgan narsaga qayg'urma, chunki bu dunyoda hali ko'p quvonch va manzillar bor" [6]. Ushbu baytda hikoyaviylik orqali inson hayotidagi o'tkinchi davrlar va yangi imkoniyatlar haqida hikoya qilinadi. Qalb va umr ramzi orqali insonning ruhiy kechinmalari tasvirlanadi. Shoir bu yerda optimistik kayfiyatni jonlantirishni maqsad qilgan.

2. Didaktik elementlar. Masnaviy o'quvchiga axloqiy xulosalar chiqarishga, haqiqatni anglashga va hayotiy tajribalarni boyitishga xizmat qiladi. Didaktik elementlar ko'pincha nasihatlar, iboratli voqealar yoki falsafiy mushohadalar shaklida bo'ladi. Masnaviy orqali yozuvchi diniy, ma'rifiy va axloqiy tamoyillarni o'rgatadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-Abror" asarida bu jihatlar ko'zga tashlanadi.

وَإِنَّ النَّاسَ أَبْنَاءُ الَّذِينَ قَدْ تَفَرَّقُوا، وَالْعِلْمُ نُورٌ وَيَدْفَعُ الْغُمْمَقَ.

(*Va inna an-nasa abna'u-d-dini faqad tafarraqu, va-l-'ilmu nurun va yadfa'u-l-uquq*). "Insonlar dinning farzandlaridir, ular din orqali ajralib turadilar, bilim esa nурdir va qalbni tozalaydi" [7].

Bu misolda axloqiy va didaktik mazmun yetakchilik qiladi. Shoir bilimni nurga qiyoslab, uning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Dinning jamiyatdagi birlashtiruvchi roli ham ochib berilgan.

Masnaviy janri o'zining ritmik va qofiyalanish xususiyatlari, keng mavzularni qamrab olish qobiliyati, epik hajmi va badiiy obrazlilik darajasi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Masnaviy qat'iy vazn qoidalariga bo'ysunadi, odatda *ramal* yoki *hazaj* kabi vaznlarda yozilib, hikoyaning uzviyligini va musiqiyligini ta'minlaydi, bu esa asarni tinglovchi yoki o'quvchi uchun esda qolarli qiladi. Janrning asosiy qofiyalanish xususiyati har bir baytning ikki misrasining o'zaro qofiyalanishidir (aa, bb, cc, ...), bu uslub matnni yengil va tabiiy oqimga ega qiladi. Baytlar mustaqil mazmunni ifodalasa-da, ular umumiy mavzu yoki voqealar zanjiri bilan bog'lanib, musiqiylik va estetik ta'sirni kuchaytiradi.

Masnaviy janri sevgi, tasavvuf, tarix, dostonlar, axloq va ijtimoiy mavzularni qamrab oluvchi keng qamrovli janr bo'lib, odatda katta hajmli, epik shaklda yoziladi. Misol tariqasida, Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asari masnaviy janrining klassik namunasidir. Badiiy obrazlilik masnaviyning muhim jihatlaridan biri bo'lib, unda tashbeh, istiora va tajnis kabi badiiy vositalar keng qo'llanilib, mazmun boyitiladi va estetika kuchaytiriladi. Shu jihatlari bilan masnaviy o'z davridan tashqariga chiqqan yuksak badiiy janr sifatida e'tirof etiladi.

Masnaviy janri arab, fors va turkiy adabiyotlarning yuksak badiiy shakllaridan biri bo‘lib, unda hikoyaviylik va didaktika uzviy ravishda uyg‘unlashgan. Uning ritmik tuzilishi va qofiyalanish tizimi matnning musiqiyligini va badiiy-estetik qiymatini oshiradi. Masnaviy janrining yuqori adabiy saviyasi va o‘ziga xos tuzilishi uni zamonaviy adabiyotda ham ahamiyatli bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Qasidalar va masnaviyalar arab adabiyotining asosiy janrlari bo‘lib, ular adabiy uslubni boyitish, poetik imkoniyatlarni kengaytirish va mazmunni estetik shakllarda ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Qasida, o‘zining qat’iy tuzilishi va badiiy xususiyatlari bilan, arab she’riyatida eng qadimiy va yuksak janr sifatida shakllangan. Nasib, rahil va madhiya kabi an’anaviy qismlardan iborat qasida asosan milliy o‘zlikni ifodalash, ijtimoiy mavzularni bayon qilish va siyosiy maqtov yoki tanqid uchun vosita sifatida xizmat qilgan. Bunda tashbeh, istiora, tajnis va kinoya kabi badiiy vositalar keng qo‘llanilib, mazmunning boyligi va ifodaviy ta’sirchanligi ta’minlangan. Qasidalar arab adabiyotida faqat ichki o‘zgarishlarni emas, balki Sharq adabiyotlaridagi fors va turkiy janrlarning rivojlanishiga ham ta’sir o‘tkazgan. Masalan, Al-Mutanabbiy qasidalaridagi maqtov va ulug‘lash unsurlari fors adabiyotida dostonlar shaklida davom ettirilgan.

Masnaviy esa, arab adabiyotida hikoyaviy va didaktik mazmunni birlashtirgan hajman katta janr bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari baytlar orasidagi ritmik va qofiyaviy uyg‘unlikdir. Har bir baytning o‘ziga xos qofiyalanish tizimi (aa, bb, cc) masnaviy janrini o‘qish va tinglashni yengillashtirgan. Bu janr tasavvufiy, axloqiy va diniy mavzularni ifodalashda, shuningdek, epik hajmdagi voqealarni bayon qilishda keng qo‘llanilgan. Masnaviy shakli Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy va Sa’di Shirazi kabi adiblar tomonidan mahorat bilan qo‘llanilib, badiiy obrazlar, tashbeh va istioralar yordamida o‘quvchiga kuchli ta’sir o‘tkazadigan asarlar yaratishda ishlatilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qasida va masnaviyarlarning arab adabiyotidagi ahamiyati nafaqat janrlarning estetik va poetik jihatlarini rivojlantirishda, balki madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda ham muhim bo‘lgan. Qasidalar orqali arab adabiyoti ijtimoiy hodisalarini yoritgan bo‘lsa, masnaviyalar ko‘proq shaxsiy tajribalar, falsafiy mushohadalar va axloqiy saboqlarni ifodalagan. Bu janrlar o‘z zamonida arab adabiyotini madaniy jihatdan boyitgan, boshqa Sharq xalqlari adabiyotlariga ulkan ta’sir ko‘rsatgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bilan birga, ular arab adabiyotining universalligini namoyish etib, adabiy san’atning evolyutsiyasida asosiy o‘rin egallagan.

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Nematullo Mukhamedov, Nurulloh Turambetov. THE DEVELOPMENT OF ACADEMIC APPROACHES IN EARLY GERMAN RELIGIOUS STUDIES // EPRA

International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. DOI: 10.36713/epra2013. -P. 267-270.

2. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. METHODOLOGIES EMPLOYED BY AL BERUNI IN THE ANALYSIS OF RELIGIOUS SYSTEMS // Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 12, Issue 12, December 2023 SJIF 2022 = 8.179 -P.105-110.
3. Ibn Qays, Imroul. *Devan Imroul Qays*. Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1999. – B. 12–15.
4. Mutanabbiy. *Devan al-Mutanabbiy*. Qohira: Dor al-Ma’arif, 1998. – B. 45–47.
5. Ibn Qutayba. *Ash-Shi’r va ash-Shu’aro*. Bayrut: Dor as-Saqafa, 1977. – B. 89–92.
6. Jaloliddin Rumiy, Masnavi Ma’navi. Qohira: Dor al-Ma’arif, 1994. – B. 112–115.
7. Sa’di Sheroyziy. Bustan. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1983. – B. 45–48.